

Stipendiyaga ariza berish bo'yicha foydali maslahatlar

O'zbekistonlik talabgorlar uchun stipendiyalar:

Stipendiyalar uchun hujjat topshirish 01.09.2018 boshlanadi.

- Talabalar uchun (bakalavr va magistraturaning 1-kursi): Germaniyadagi [universitetlardan birida nemis tili bo'yicha yozgi 3-4 haftalik til kurslari](#) uchun beriladigan stipendiya.
- **Bitiruvchilar** uchun (bakalavr yoki magistr): [barcha ixtisosliklar bitiruvchilari](#), shu bilan birga [iqtisod, arxitektura, musiqa, sahna san'ati, tasviriy san'at, dizayn / vizual aloqa va kino mutahassislikari](#) uchun stipendiyalar.
- **Kasbiy tajribaga ega bo'lgan** bitiruvchilar uchun: rivojlanish bilan bog'liq sohalarda stipendiyalar. [Barqaror rivojlanish bo'yicha mutaxassis va menejrlarni tayyorlash.](#)
- **Doktorantlar** uchun: tadqiqot uchun grantlar ([qisqa muddatli - 6 oygacha](#) yoki [uzoq muddatli - 1 yilgacha](#), [Germaniyada doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish, ikki tomonlama doktorantura](#)).
- **Ilimiy darajali tadqiqotchilar** uchun grantlar ([qisqa muddatli - 6 oygacha](#) yoki [uzoq muddatli - 1 yilgacha](#)).
- **Tajribali olimlar** uchun: [ilmiy izlanishlar uchun safar \(3 oygacha\)](#)

[Stipendiyalar bazasida](#) Siz boshqa nemis tashkilotlarining grantlari to'g'risida ma'lumot olishingiz mumkin.

O'zimga mos til kursini yoki magistratura dasturini qanday topishim mumkin?

Ushbu saytda ["Til va ixtisoslashgan kurslar" ma'lumotlar bazasida](#) Siz Germaniya universitetlarida yozgi kurslarni qidirib topishingiz mumkin.

["Barcha o'quv dasturlari" ma'lumotlar bazasida](#) Germaniyadagi nemis va ingliz tilida o'qitiladigan magistratura dasturlarini topishingiz mumkin.

Xalqaro, asosan, ingliz tilidagi dasturlarni [Siz "Xalqaro dasturlar" ma'lumotlar bazasida](#) topishingiz mumkin.

Germaniyada doktrolik ilmiy darajasini qanday himoya qilishim mumkin?

Germaniyada himoya qilishni istagan xalqaro doktorantlar uchun ma'lumotni ["Germaniyada tadqiqot" veb-saytidan](#) topishingiz mumkin.

Agar Germaniyada doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlamoqchi bo'lsangiz, unda Siz o'z tadqiqot loyihangizni asoslab berishingiz kerak. [Ushbu veb-saytda asosnomani yozish uchun kerakli qo'llanmani topasiz.](#)

Tadqiqot uchun Germaniyda ilmiy rahbarni qanday topaman?

Nemis tadqiqot manzarasi juda xilma-xil va kengdir. ["Germaniyada tadqiqot" veb-saytida](#) tegishli ilmiy-tadqiqot institutini izlash bo'yicha ma'lumot topasiz.

Bu yerda nemis oliygohi o'qituvchisining taklifnomasi haqidagi axborot broshyurasini topasiz:

[Download: Infoblatt Betreuungszusage eines deutschen Hochschullehrers](#)

Arizani qachon beraman?

Arizani topshirishning aniq muddatlari haqidagi ma'lumotlarni tegishli dasturning "Arizani topshirish tartibi" yorlig'i ostida topishingiz mumkin. Aksariyat dasturlar uchun ariza topshirish muddati - oktyabrning oxiri va dekabr oyining boshi hisoblanadi. Stipendiya keyingi yilning iyulidan yoki qishki semestrda boshlanadi.

Til bilimlari darajasini tasdiqlovchi sertifikat kerakmi?

Sizdan qaysi darajada til bilimlari talab qilinishi Siz tanlagan stipendiya dasturiga bog'liq. Ushbu ma'lumotni "Dasturga qo'yiladigan talablar" yorlig'i ostida keltirilgan dastur tavsifidan topishingiz mumkin. Deyarli barcha stipendiya dasturlarida ushbu talab mavjud, shuning uchun Siz oldindan yetarlicha til bilimlariga egaligingizni tasdiqlovchi hujjatni olish uchun harakat qilishingiz kerak. Magistratura dasturlari uchun kamida Umumyevropa standartlariga muvofiq B2 darajasiga mos keladigan (masalan, TestDaF, DSDII, DSH, GI Zertifikatlari yoki IELTS, TOEFL) til sertifikatiga ega bo'lishingiz kerak.

Agar Sizga OnSet kerak bo'lsa (masalan, universitetdagi yozgi kurs-HSK uchun yoki tadqiqot grantlari uchun), biz Sizga ushbu testda bepul ishtirok etish imkoniyatini taklif qilamiz. Batafsil: www.onset.de

Testning o'tkaziladigan joy va vaqti haqida batafsil ma'lumotni siz Toshkentdagi Germaniya elchixonasida hujjatlarni taqdim etganingizda bilib olishingiz mumkin.

Stipendiya uchun asosnomani va tarjimai holimni qanday yozaman?

[Ushbu saytda asosnomani yozishda](#) kerak bo'ladigan qo'llanmani topasiz.

Stipendiyaga hujjatlarni to'liq va to'g'ri shakllantirish bo'yicha maslahatlar

- Ariza topshirayotganda ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxatini diqqat bilan o'qib chiqing (tanlov jarayoni yorlig'i ostida). Faqat to'liq hujjatlar ko'rib chiqilishi mumkin.
- Hujjatlar bir biriga tikilmagan holda, A4 formatidagi qog'o'zda bir tomonlama bosma / nusxa shaklida bo'lishi kerak.
- Hujjatlarning barcha nusxalarida shaxsiy imzoyingiz bo'lishi lozim.

Arizalarning elektron portali qanday ishlaydi?

Stipendiya dasturlarining tafsifida "Ariza topshirish" yorlig'i ostida Sizga arizani elektron topshirish jarayoni qadamma-qadam yoritiladi. U yerda Siz portalda ro'yxatdan o'tish va ariza topshirish tartibi bo'yicha ko'rsatmalarni yuklab olishingiz ham mumkin.

Stipendiatlar tanlovi qanday amalga oshiriladi?

Stipendiatlarni tanlash tartibi va mezonini haqidagi ma'lumotni ushbu [veb-saytda](#) ko'rishingiz mumkin.

Menda stipendiyalarga oid boshqa savollarim bor. Qo'shimcha ma'lumotlarni qaerdan olsam bo'ladi?

[Ushbu saytda](#) Siz arizaga qo'yiladigan talablar, arizani to'g'ri shakllantirish tartibi, arizani elektron portal orqali topshirish tartibi va tanlov jarayoniga oid muhim savollarga javob topasiz.

Boshqa masalalar bo'yicha Siz to'g'ridan-to'g'ri biz bilan bog'lanishingiz mumkin, bu yerda bizning aloqa ma'lumotlarimiz va ish vaqtimizni ko'rishingiz mumkin.

Maslahat berish

O'qish bo'yicha elchixonada shaxsiy maslahat berishni yo'lga qo'ygan (ku102@tasc.diplo.de manzili orqali oldindan kelishilgan vaqtda):

Seshanba va payshanba kunlari soat 14:00 dan 16:00 gacha.

Telefon orqali maslahat berish dushanba va chorshanba kunlari soat 10:00 dan 12:00 gacha amalga oshiriladi. Telefon raqami: 120 84 78.